

Muxammedov Murod Muxamadiyevich

SamISI professori i.f.d.,

Zarina Murodovna Muxammedova

SamISI doktranti

XIZMATLAR SOHASINING TARMOQLAR BO‘YICHA TARKIBIY TUZILISHINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: maqolada xizmatlar sohasining tarkibiy tuzilishini takomillashtirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va ulardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari o‘rganilgan. Bunda xalqaro tasnifda belgilangan 150 dan ortiq xizmat turlari innovatsionlik darajasiga ko‘ra besh guruhga bo‘linishi va ular an’anaviy va noan’anaviy xizmatlarga bo‘linishi yoritilgan.

Kalit so‘z: xizmat ko‘rsatish sohasi, xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti, xorijiy mamlakatlar tajribasi, xizmat turlari, innovatsionlik darajasi, an’anaviy va noan’anaviy xizmatlar, professional xizmatlar, sifatli xizmatlar bozori.

Abstract: the article examines the experience of foreign countries in improving the structural organization of the service sector and the main areas of its application. It highlights the division of more than 150 types of services established in the international classification into five groups based on their level of innovation, as well as their classification into traditional and non-traditional services.


Keywords: service sector, service economy, experience of foreign countries, types of services, level of innovation, traditional and non-traditional services, professional services, market for quality services.

Bugun mamlakat iqtisodiyotining dinamikasini xizmat ko‘rsatish sohasi dinamikasi bilan belgilash odatga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda zamonaviy takror ishlab chiqarish jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasining rolini uning tarmoqlar bo‘yicha tarkibiy tuzilishini shakllantirish tendensiyalarini hisobga olgan holda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xizmat ko‘rsatish sohasining tarmoqlar bo‘yicha tarkibiy tuzilishini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri optimal natijalarga erishish uchun foydali manba bo‘lgan xorijiy tajribadan foydalanish hisoblanadi.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida xizmatlar sohasining hajmi o‘sib bormoqda, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortmoqda, sohada band aholi soni ko‘paymoqda va xizmatlarning xalqaro savdosi faol rivojlanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi. Jahon bankining ma‘lumotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasining jahon

YalMdagi oʻrtacha ulushi 64,0 foizdan koʻproqni egallaydi (1-rasm).

Oʻzbekiston rasmiy ravishda “xizmat koʻrsatish iqtisodiyoti deb ataladigan va iqtisodiy rivojlanishning asosiy natijalarida sohaning yuqori hissasi bilan ajralib turadigan yangi turdagi iqtisodiyotga”¹⁶ oʻtmoqda. Keyingi yillarda Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatish sohasi iqtisodiy natijalarga hissa qoʻshish koʻrsatkichlarining oʻziga xos dinamizmi va sifat oʻzgarishlari bilan xarakterlanadi. Xizmat koʻrsatish sohasini jadal yuksaltirish 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasidagi ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi¹⁷. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida sohaning subyektlari miqdoriy oʻsishining tezlashgani, xizmatlarning tarmoq tarkibi takomillashib, turlari kengayib borayotgani, zamonaviy va sifatli xizmatlar bozori shakllanayotganligi diqqatga sazovor.



1-rasm. Jahon YalMning tarkibida xizmat koʻrsatish sohasining ulushi, trln. soʻmda va foizda¹⁸

2023-yilda Oʻzbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotidagi xizmat koʻrsatish sohasining ulushi 44,1 foizni¹⁹ tashkil qildi va bu butun jahon iqtisodiyoti uchun oʻrtacha koʻrsatkichdan sezilarli darajada past. Taʼkidlash joizki, mamlakatimizda ushbu tarmoq yalpi ichki mahsulot tarkibida uning ulushini oshirish va kengaytirish istiqbollariga ega (1-jadval).

¹⁶ Обзор факторов пространственной сбалансированности сферы услуг.

¹⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF № 60-sonli Farmoni. [Elektron resurs]. Kirish yoʻli: // <https://lex.uz/docs/5841063> (murojaat etilgan sana: 10.10.2024).

¹⁸ <http://worldbank>. (murojaat etilgan sana: 11.03.2025).

¹⁹ Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari.

2023-yilda jahon mamlakatlarida YaIMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi²⁰

Mamlakatlar	YaIM hajmi, mlrd. doll.	Moddiy ishlab chiqarish sohasi		Xizmatlar sohasi	
		mahsulot hajmi, mlrd. doll.	ulushi, %	xizmatlar hajmi, mlrd. doll.	ulushi, %
AQSH	27967,0	5705,0	20,4	22262,0	79,6
Xitoy	18560,0	8983,0	48,4	9577,0	51,6
Germaniya	4701,0	1476,0	31,4	3225,0	68,6
Yaponiya	4286,0	1157,0	27,0	3129,0	73,0
Indiya	4105,0	1929,0	47,0	2176,0	53,0
Buyuk Britaniya	3588,0	915,0	25,5	2673,0	74,5
Fransiya	3183,0	713,0	22,4	2470,0	77,6
Italiya	2284,0	596,0	26,1	1688,0	73,9
Braziliya	2265,0	657,0	29,0	1608,0	71,0
Kanada	2239,0	667,0	29,8	1572,0	70,2
Rossiya	1904,0	762,0	40,0	1142,0	60,0
Janubiy Koreya	1785,0	546,0	30,6	1239,0	69,4
O'zbekiston	90,8	50,4	55,9	40,4	44,1

An'anaviy xizmatlar tarkibiga savdo, transport, yashash va ovqatlanish, davlat boshqaruvi hamda aloqa xizmatlari kiradi. Noan'anaviy xizmatlar esa jamiyatda shakllanayotgan yangi ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lib, ular turizm, moliyaviybankxizmatlari, konsaltingva logistika faoliyatlari, me'morchilik, muhandislik ishlari, texnik sinov va tahlil xizmatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq xizmatlar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari hamda

ijtimoiy xizmatlar majmui kiradi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ko'rsatayotgan xizmatlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilishini taqqoslaganda, ular o'rtasida keskin tafovutlar mavjud ekanligi aniqlandi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va aholi daromadlari pastligi tufayli, asosan, an'anaviy xizmatlar – savdo xizmatlari, transport xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlarining keng tarqalganligi bilan²¹ namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ayrim mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion yo'nalishlar ham faol shakllanmoqda. Masalan, Hindistonda moliyaviy, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari bilan bir qatorda ko'chmas mulk bo'yicha xizmatlar ham kengayib bormoqda. Bundan tashqari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari so'nggi yillarda jadal rivojlanib, xizmatlar bozorining tarkibiy tuzilishida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Hindiston jadallik bilan jahon axborot texnologiyalari bozorida yetakchi mamlakatlardan biriga aylanib bormoqda. Yuqori rivojlangan davlatlar Hindiston

²⁰ Доля в мировом ВВП – Классация стран. [Электрон ресурс]. Кириш йўли: // https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/gdp_share/ (мурожаат этилган сана: 10.02.2025).

²¹ Тагоева Робиямох Гулмуродовна-Формирование механизма управления развитием сферы социальных услуг.

iqtisodiyotiga katta miqdorda moliyaviy sarmoya kiritganligi buning dalilidir. Xususan, ular butun dunyo bo'ylab o'z mijozlaridan texnologik xizmatlar ko'rsatish va axborot buyurtmalarini qayta ishlash uchun mamlakatda bir nechta yirik markazlarni tashkil etdilar. Umumiy e'tirofga ko'ra, butun dunyo bo'ylab hindistonlik ishchilar o'zlarining vazifalarini bajarishda yuqori professionalligi bilan ajralib turadilar.

Xitoyda ham xizmat ko'rsatish sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi kuzatilmoqda. Bularga: bank xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlari, turizm, moliyaviy xizmatlar, sug'urta, transport, reklama, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlari kiradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarda xizmatlarning barcha turlari rivojlanganligini ko'rsatdi. Biroq, xizmatlarning innovatsion turlari, ya'ni AKT, mobil aloqa xizmatlari, mobil ilovalar, internet xizmatlari, shu jumladan, onlayn savdo, innovatsion sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar, tadbirlar turizmi xizmatlari va boshqalar²² jadal rivojlanayotganligini ta'kidlash lozim.

Bir qator davlatlar jahon xizmatlar bozorida o'zlarining xalqaro ixtisoslashuvini mustahkam o'rnatganligi aniqlandi. Masalan, Shveysariya bank, savdo, konsalting, logistika xizmatlariga ixtisoslashgan, Buyuk Britaniya – sug'urta va bank xizmatlari, auksion xizmatlari, har xil turdagi konsalting xizmatlari sohasida, Singapur – havo transportida, AQSH – reklama va mehmonxona biznesida²³. AQSH zamonaviy iqtisodiyotda texnologik taraqqiyot va ilmiy bilimlarning boshqa shakllari, ilg'or ishlab chiqarish tajribasi va ularni iqtisodiy tuzilmaning barcha qatlamlariga o'tkazish generatori bo'lgan biznes xizmatlari guruhining yuqori darajada rivojlanishi bilan ajralib turadi. Bu ko'p jihatdan AQSHda bunday xizmatlar kompaniyalar doirasidan tashqariga chiqarilganligi, ya'ni autsorsing qilinganligi yoki biznes xizmatlarini autsorsing qilish keng tarqalganligi sababli bo'lib, bu ularning moslashuvchanligi va ixtisoslashuvini ta'minlaydi, boshqa mamlakatlarda esa bunday xizmatlar yirik korxonalarga birlashtirilgan²⁴.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini, turmush darajasini oshirishni ta'minlaydigan, shuningdek, atrof- muhitga nisbatan ancha tejankor va istiqbolli deb hisoblangan, ko'proq bilim talab qiladigan²⁵, "qimmat" xizmatlarga²⁶ e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatdi.

Rivojlangan mamlakatlar tarmoq tuzilmasining tahlili YaIMda eng yuqori ulush (30 foiz) biznes va professional xizmatlar tarkibiga ilmiy asosga ega bo'lgan, yuqori texnologiyalar va intellektual salohiyatni talab etuvchi xizmatlar ustuvor ekanligini

²² ВКР_Биктимирова ВФ_3-12Эк(ба)ФМ(МТИ)_210217

²³ Киселева И.А. Сфера услуг как основа развития современной экономики. Журнал Вопросы экономики, 2013. № 46 (184).

²⁴ Зименков Р.И. Аутсорсинг в практике американских корпораций. [Электрон ресурс]. Кириш йўли: // <https://usacanada.jes.su/s032120680005179-0-1/> (мурожаат этилган сана: 11.03.2025).

²⁵ <http://elibrary.ru/item.asp?id=42363117>

²⁶ purevjav_z_-_sравnit elnyy-analiz-socialn ogo-i-ekonomicheskog o-razvitiya-stran-ce ntralnoy-azii-i-mong olii.pdf

ko'rsatdi²⁷. Biznes xizmatlari sohasida keyingi yillarda yuqori va barqaror o'sish sur'atlari kuzatilmoqda (2-jadval).

2-jadval

**2000-2023-yillarda rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasi
 YaIMdagi hissasining dinamikasi²⁸, %**

Mamlakatlar nomi	Xizmat ko'rsatish sohasi yirik xizmat guruhlarining YaIMdagi ulushi, %									
	I Savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari		II Transport, aloqa, saqlash, kommunikatsi ya xizmatlari		III Moliya, sug'urta, biznes xizmatlari		IV Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot xizmatlari		V Davlat xizmatlari	
	2000	2023	2000	2023	2000	2023	2000	2023	2000	2023
Angliya	15,0	19,5	6,8	7,2	16,9	30,0	5,2	16,7	12,7	4,9
Germaniya	13,9	12,4	6,6	5,6	18,0	29,0	9,0	16,4	11,9	6,0
AQSH	15,4	12,6	6,2	7,1	23,6	32,4	9,1	15,8	12,0	4,9
Fransiya	14,6	13,1	6,1	6,3	18,3	31,4	4,2	17,3	16,9	4,6
Yaponiya	13,4	12,7	6,6	6,8	18,2	21,8	16,4	17,4	8,2	5,5
Rossiya	18,4	22,0	8,7	8,7	5,8	22,0	6,2	6,6	6,7	10,4
O'zbekiston ²⁹	12,3	27,4	8,8	23,1	3,8	22,6	3,6	6,1	-	-

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining tarmoq tarkibida yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi va o'sish sur'atlari bo'yicha muhim o'rinni inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim xizmatlari, sog'liqni saqlash xizmatlari, madaniyat va dam olish industriyasi kabi tarmoqlar guruhi egallashini aniqlash imkonini berdi. Bu tarmoqlar nomoddiy aktivlarni, ya'ni bilim va axborotlarni yaratuvchi va shu bilan birga ulardan foydalanish samaradorligini belgilaydigan tarmoqlar³⁰ hisoblanadi. Innovatsiyalar takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas elementiga aylangan va ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi so'nggi yutuqlar istisnosiz jahon iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan sharoitda inson resurslarining roli hal qiluvchi hisoblanadi. Xususan, yangi mahsulotning jahon bozoriga chiqarilishi yuz millionlab

²⁷ Предводителя М.Д., Балаева О.Н. Основные тенденции развития Российской сферы услуг. Журнал: «Маркетинг услуг». 2018. № 04(16).

²⁸ <http://worldbank> (murojaat etilgan sana: 26.04.2025).

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. [Elektron resurs]. Kirish yo'li: // <https://stat.uz/> (murojaat etilgan sana: 02.05.2025).

³⁰ О роли сферы услуг в современной экономике – тема научной статьи по экономике и бизнесу читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка // <https://cyberleninka.ru/article/n/o-rol-i-sfery-uslug-v-sovremennoy-ekonomike>

va hatto milliardlab dollarga teng xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning asosiy ulushini ilmiy-tadqiqot, logistika, reklama va hokazolarga sarflangan xarajatlar tashkil etadi. Bunday sharoitda inson kapitalining “sifati” hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlar tajribasi xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga kompleks yondashuv muhimligini ko‘rsatib turibdi. Germaniya, Angliya, Fransiya, Yaponiya va AQSHning ijobiy tajribalarini tahlil qilib, O‘zbekiston o‘z xizmat ko‘rsatish sohasini sezilarli darajada yaxshilashi, raqobatbardoshligi va iste’molchilar uchun ichki va xorijdagi jozibadorligini oshirishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, barqaror iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligi oshishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Mirziyoyev Sh.M. *O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari*. — Toshkent, 2017.
2. G‘aniyev A.A. Xizmatlar sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. — 2019. — №3. — B. 15–23.
3. Xolmuradov S.S. Xizmatlar sohasi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish yo‘nalishlari // *Iqtisodiyot va ta’lim*. — 2020. — №4. — B. 42–49.
4. Ismoilov B.B. Xizmatlar sektorining iqtisodiy o‘rinishdagi roli va samaradorligi // *Moliyaviy boshqaruv*. — 2021. — №2. — B. 28–35.
5. Abdullayev O.Q. Milliy iqtisodiyotda xizmatlar bozorini rivojlantirish mexanizmlari // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. — 2021. — №5. — B. 19–26.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *O‘zbekistonda xizmatlar sohasi rivoji: statistik to‘plam*. — Toshkent, 2024.
7. Lovelock C., Wirtz J. *Services Marketing: People, Technology, Strategy*. — 8th ed. — Pearson Education, 2016.
8. Kotler P., Keller K.L. *Marketing Management*. — 15th ed. — Pearson Education, 2016.
9. Baumol W.J. *The Cost Disease: Why Computers Get Cheaper and Health Care Doesn’t*. — Yale University Press, 2012.